



KRIMINAL MAVZULARNING YORITILISH MASALALARI

Xajiyeva Madinaxan Ravshanbekovna

Annotatsiya: *Ushbu tezisda kriminal materiallar yoritilishida matbuot funksiyalari o'rni va ahamiyati haqida so'z boradi.*

Axborot asrida yashayotgan har kim axboriy muhitning ishtirokchisidir. Insonlar axborotni oladi, munosabat bildiradi, tarqatadi va qayta ishlaydi. Jamiyatdagi siyosiy yangiliklar kim uchundir qiziq bo'lsa yana kimdir sport xabarlarini yoki shov-shuvli ma'lumotlarni ko'rishni yoki tinglashni istaydi.

Ob-xavo ma'lumotidan tortib munajjimlar bashoritigacha bo'lgan axborotlar auditoriya uchun odatiy xabarlar bo'lsa jinoyatchilik mavzulari yoritilgan ko'rsatuvlar yoki matbuot maqolalari boshqa xabarlar bilan solishtirganda insonda vahima, qo'rquv, achinish kabi turli emotsiyalarni uyg'otishi bilan boshqa xabarlardan farqlanadi. Axborot barcha uchun global ahamiyatga molik ozuqa bo'lib qoldi. Ommaviy axborot vositalari jamiyat uchun eng yetakchi davlat institutlaridan biri hisoblanadi.

Chunki OAV ta'siri natijasida dunyo doimiy o'zgarib yangilanib bormoqda. Jamiyatning har qanday sohasi xoh u sport bo'lsin, xoh tibbiyot, huquq, ta'lim, ekologiya, madaniyat barchasi OAV ga bog'liq va OAV talqini sabab rivojlanadi, tahlillanadi va tadbiriq etiladi. Jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlar muhim voqea hodisalar tavsilotlari insonlar idrok etishi uchun OAV orqali beriladi. Ma'lumotlar har soniyada yangilanadi.

OAV orqali berilayotgan ma'lumotlar solishtirilsa axborot oqimining kuchi va OAV lar o'rtasidagi raqobat insonlarning axborotga bo'lgan ehtiyojining yuqori darajada ekanligi ma'lum bo'ladi. Axborot bir vaqtning o'zida qurol ham himoya ham bo'la oladi. «Matbuotning bosh vazifasi - ijtimoiy hayotni aks ettirish, ya'ni ijtimoiy informatsiya yig'ish va ommaga yetkazib berishdan iboratdir», [1] Darhaqiqat, OAV doimiy ravishda jamiyat hayotini yoritish, uni tadqiq qilish va unga ta'sir etish vazifasini bajarib keladi.

Umuman aytganda, matbuotning asosiy funksiyalari taniqli olimlar Ye.P. Proxorov [2], S.G. Korkonosenko [3], M. Xudoyqulov tomonidan keng tadqiq etilgan. Olimlarning qayd etishicha, matbuotning funksiyalarini shartli ravishda uch qismga - tasvir, tahlil va ta'sir kabi asosiy funksiyalarga ajratish mumkin.

Bundan kelib chiqadiki, matbuotning barcha funksiyalari mazkur uch asosiy qism tarkibiga kiradi. Shu bois mazkur faslda matbuotning sud protsesslarini yoritishdagi funksiyalari - jamoatchilik nazorati, aholini xabardor etish, huquqiy ta'lim berish, o'z-o'zini nazorat qilishga undash funksiyalarini tahlil etamiz.

1. Jamoatchilik nazorati funksiyasi. OAV tomonidan sud hokimiyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish muhim jarayon bo'lib, jurnalistlarning sud protsessidagi ishtiroki, tahliliy yoki tanqidiy reportajlar bilan chiqishi hamda sud



qarorlari to'g'risida, sud muhokamalari, bevosita sudyalari va ularning odob-axloqi, bilim darajasi xususida o'ta muhim masalalarni ko'tarishi mumkinligini inobatga olsak, bu vazifaning ahamiyatini tushunish qiyin emas.

2.Xabardor etish funksiyasi. Jamoatchilik axborot olish huquqiga ega: axborot insonlarning ijtimoiy hayotda mas'uliyatli ishtiroki uchun asos bo'lib, bu sud hokimiyati sohasida ham qo'llanishi lozim. «Binobarin, hayotni tasvirlash, u haqda xabar berish matbuotning, ommaviy axborot vositalarining eng birinchi vazifasi hisoblanadi».

3. Huquqiy ta'lim berish funksiyasi. Sud-huquq masalalari va sud protsesslarini yoritib boradigan ommaviy axborot vositalari huquqiy masalalarda jamoatchilikning ongi va dunyo- qarashini oshirishga muhim hissa qo'shadi. Bu fuqarolar o'z huquq va majburiyatlari to'g'risida ko'proq bilishi, sudning vazifalari va ish uslublaridan, sudya, advokat yoki prokuror vakolati va vazifasidan, jinoyatga jazo muqarrar ekanligidan boxabar bo'lishiga yordam beradi. Matbuotning bu funksiyasi g'oyat muhim ahamiyatga ega ekanligini doktor Xayns Buxler (Germaniya) shunday asoslaydi: «Sudya sifatida OAVning ushbu oqlash omiliga va sud ishlarining bilimdonlik bilan yoritilishiga katta ahamiyat beraman. Qonunlarni, sud tizimi idoralari vazifasini o'rganish aksariyat hollarda maktab dasturiga kiritilmaydi va oqibatda na yoshlar, na kattalar bu masalalar bo'yicha hech qanday bilimga ega bo'lmaydilar».

4.O'z-o'zini nazorat qilishga undash funksiyasi. OAV tomonidan sud protsesslari va qarorlarining adolat va xolislik bilan yoritilishi sud hokimiyatining o'zini-o'zi nazorat qilishiga hissa qo'shadi.

Matbuotda xolis va haqqoniy tanqidga uchragan sud va sudyalari bunday tanqidiy sharhlarni, albatta, jiddiy qabul qiladilar va, ayniqsa, sud qarori yuridik bilimlarga ega jurnalist, mutaxassis yoki hamkasblari tomonidan sharhlansa, sudya o'z qarori ustida mulohaza qilib ko'rishga majbur bo'ladi. Sud qarorlarining byulleten va jurnallarda chop etilishi ham sud hokimiyatining va sudyalarning o'z-o'zini nazorat qilishiga hissa qo'shadi. Chunki bu qarorlar boshqa sudyalari yoki oliy o'quv yurtlarining huquqshunos olimlari tomonidan sharhlanishi mumkin.

OAVda sud jarayonlarini yoritish amaliyoti shuni ko'rsatadiki, ba'zan jurnalistning o'zi ham ushbu jarayon ta'siriga tushib qolishi mumkin. Qolaversa, matbuotda sud jarayonini yoritishning o'ziga xos xususiyatlari borki, sud zalida hozir bo'lgan jurnalist moddiy va protsessual normalarga bo'ysunishga majbur. Shu bois har bir davlat o'z milliy qonunchiligida ana shu jihatlarni e'tiborga oladi va natijada muayyan amaliyot shakllanadi.

Kriminal mavzularning to'g'ri tartibda yoritilishi auditoriyaning qonunlarga va xuquq tartibot organlariga nisbatan fikriga ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Har qanday jinoyat mavzusidagi material orqali insonda maqullash, rad etish, achinish, ayblash kabi hissiy reaksiyalar paydo bo'ladi.

Auditoriya qonun ustuvorligi va jinoyatchilikning keltirib chiqaruvchi oqibatlari to'g'risida to'g'ri xulosa olishi uchun mamlakatdagi qonun ustuvorligi borasidagi



yetkazib beruvchi fakti jinoyat mavzusi ochilgach oxirgi jarayon nima bo'ldi? degan savol ochiq qolmasligi kerak.

Kriminogen ta'sir-axoliga fobiya (qo'rquv) larni singdirish, yetilib borayotgan muammolar, ijtimoiy xolatni keskinlashtiruvchi axborotlar, jinoyatchilarni qaxramon darajasiga ko'tarib ularni qahramon qilib ko'rsatish kabilarni qamrab oladi.

Ommaviy axborot vositalari jinoyat yuz berganligi yashirilgan holatda ham auditoriyaning murojaatlari orqali bugungi kunga kelib noqonuniy xarakatlarni ochiqlab o'zining 4-hokimiyat ekanligini isbotlab kelmoqda. Yuz berayotgan voqelik borasida axborotning berilishi har bir shaxs o'zi va yaqinlarini ana shunday holatlardan himoya qilishi va xavfsizlik choralari e'tiborini kuchaytirishi kerakligi uchun muxim xisoblanadi.

O'z vaqtida ommaga joriy qilingan ma'lumotlar jinoyatlarning oldini olish, kurashish, himoya qilishda muxim deb xisoblaymiz. Haqiqiy holatlar to'g'risida jurnalistlarning xolisona material tayorlab e'lon qilishi jurnalistikaning xabar berish funksiyasini o'rinlanishida muhim. Jurnalist faktlarga tayanishi vaziyatni bo'rttirmay yoritishi tarafkashlik qilmasligiga e'tibor qaratishi lozim.

Chunki bo'rttirilgan ma'lumotlar qonuniy chora ko'rilgunga qadar axolining xuquq tartibot organlariga va davlatning qonuniy kuchiga nisbatan ishonchini pasaytiradi. Shuningdek, vaziyatni to'liq o'rganmay turib baxolash ham boshqa jinoyat sodir bo'lishiga yo'l ochishi mumkin. Ommaviy axborot vositalari jinoiy mavzularni yoritganda jinoiy holatlarni pasaytirib ko'rsatishi ham jinoyatchilikning oshishi va qurbonlarning ko'payishiga sabab bo'lib qoladi.

Shu sababdan haqiqiy holatlar e'lon qilinsa auditoriyaning ishonchi mustahkamlanadi. Agar jurnalist to'g'ri ma'lumot bermasa vaziyat xuquqiy baxolanmasa auditoriyaning jurnalistikaga ham davlat qonunlariga ham ishonch va hurmati yo'qqa chiqadi. Ommaviy fikrning shakllanishida OAVning o'rni va roli katta. Jurnalistlar o'z faoliyatni davomida axloqiy me'yorlarga rioya qilishi, dezinformatsiya tarqatmasligi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Худойкулов М. Журналистика ва публицистика. Ўқув қўлланма. - Тошкент: Университет, 2008. - Б. 28.
2. Прохоров Е.П. Введение в теорию журналистики. - Учеб. пособие. Серия «Практическая журналистика», - М.: РИП-холдинг, 2000.
3. Корконосенко С.Г. Основы журналистики. Изд. второе. - М.: Аспект Пресс, 2006.